



Toshkent viloyati, Chirchiq shahri
Amir Temur ko'chasi 15
Chirchiq OTQMBY
Tel: 70-716-50 50, 49-23
Faks: 70-716-50-07
Email: chirchiqotqmbu@gmail.com

CHIRCHIQ OLIY TANK QO'MONDONLIK MUHANDISLIK BILIM YURTI

ZIRHLI QALQON

ilmiy – axborot jurnali
№ 23 (37) 2024-yil oktabr





Harbiy ta'lim va ilm-fan tizimida boshlangan islohotlarni izchil amalga oshirish, soha uchun kadrlar tayyorlashda nazariya va amaliyotni imkon qadar yaqinlashtirishga alohida e'tibor qaratish lozim.


Sh.Mirziyoyev
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni

В военном обучении и научно-учебных сферах, также в сфере подготовки кадров мы должны тщательно стараться совмещать практикой.

Ш.Мирзиёев
Президент Республики Узбекистан,
Верховный Главнокомандующий
Вооруженными Силами

Consistent implementation of the reforms initiated in the system of military education and science, special attention should be paid to bringing theory and practice as close as possible to training personnel for the field.

Sh.Mirziyoev
President of the Republic of Uzbekistan,
Commander-in-Chief of the Armed Forces





ZIRHLI QALQON

ILMIY – AXBOROT JURNALI

№ 23 (37) 2024- yil oktabr



TAHRIR HAY'ATI

Bosh muharrir - bilim yurti boshlig'i, dotsent, polkovnik Shavkatbek Xusanbayevich Mamajonov.

Mas'ul muharrir - bilim yurti boshlig'ining o'quv va ilmiy ishlari bo'yicha o'rinnbosari, h.f.d. (DSc), professor, polkovnik Sobirjon Sayipjanovich Abdurayimov.

Tahrir hay'ati a'zolari:

Bilim yurti ilmiy ishlari va innovatsion faoliyatni tashkil etish bo'limi boshlig'i, h.f.f.d. (PhD), podpolkovnik Shamudinov Sharafiddin Kamalovich;

Ilmiy ishlari va innovatsion faoliyatni tashkil etish bo'limi katta ilmiy xodimi h.f.d. (DSc), k.i.x., QK xizmatchisi Sultanov Denis Igamberdiyevich;

Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi p.f.f.d. (PhD), mayor Raximov Farrux Boltayevich;

MV XHX BB boshlig'ining o'rinnbosari s.f.f.d. (PhD), polkovnik Usmonov Sirojiddin Safarovich;

Bilim yurti ilmiy ishlari va innovatsion faoliyatni tashkil etish bo'limi boshlig'i, f.f.f.d. (PhD), kapitan Ishpo'latov Inoyat Saparovich;

O'zbekiston Davlat Jahon tillar universiteti Ispan tili amaliy fanlari kafedrasini mudiri, fil.f.d. (DSc), professor Baxronova Dilrabo Keldiyarovna;

Fag'ona davlat universiteti o'qituvchisi f.f.f.d. (PhD), Buzrukova Dilorom Mamirxonovna;

Tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasini mudiri k.f.n, dotsent, QK xizmatchisi Vorisova Ra'no Sobirovna;

Umumtexnik fanlar kafedrasini mudiri, t.f.f.d. (PhD), QK xizmatchisi Yunusov Baxtiyor Abdullayevich;

Tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasini professori, k.f.n., dotsent, QK xizmatchisi Hamroqulov G'ofurjon Begimqulovich;

Umumtexnik fanlar kafedrasini professori, t.f.n., dotsent, QK xizmatchisi Matmurodov Farxod Matqurbanovich;

Tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasini dotsenti, p.f.f.d. (PhD), dotsent, QK xizmatchisi Ramonova Sadoqat Qomilovna;

Qo'shinlar kundalik faoliyati va qo'shinlarni boshqarish kafedrasini katta o'qituvchisi, t.f.f.d. (PhD), QK xizmatchisi Nigmatov Zafarjon Zokirovich;

Umumtexnik fanlar kafedrasini dotsenti, t.f.f.d. (PhD), QK xizmatchisi Gapparov Shokir Xasanovich;

Quruqlikdagi qo'shinlar havo hujumidan mudofaa kafedrasini katta o'qituvchisi t.f.n., dotsent, QK xizmatchisi Savridinov Nukridin;

Tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasini dotsenti, f-m.f.f.d. (PhD), QK xizmatchisi Ulashov Jaxongir Zayniddinovich;

Tillar kafedrasini dotsenti, p.f.f.d. (PhD), QK xizmatchisi Rahmonqulova Dilshoda Murodqoziyevna;

Tillar kafedrasini o'qituvchisi Juraboyeva Moxidil Maximadaliyevna;

Chirchiq DPU kafedrasini dotsenti, Saitkulova Nazokat Ramonovna;

O'R Jamoat xavfsizligi universiteti Qo'riqlashni muhandislik – texnik ta'minlash kafedrasini boshlig'ining o'rinnbosari, t.f.f.d. (PhD), polkovnik Xursandov Elyor Dustbekovich;

Gumanitar fanlar kafedrasini boshlig'ining o'rinnbosari p.f.f.d. (PhD), dotsent, podpolkovnik Xasanboyev Bekzod Valijonovich;

O'R QK Akademiyasi Harbiy razvedka kafedrasini boshlig'i o'rinnbosari, h.f.f.d. (PhD), podpolkovnik Gilyajdinov Rafael Talgatovich;

Bilim yurti Texnik ta'minot kafedrasini o'qituvchisi t.f.f.d. (PhD), dotsenti, kapitan Xurramov Akbar Ilhomovich;

O'R QK Mudofaa va harbiy xavfsizlik muammolarini o'rganishi ilmiy tadqiqot instituti ilmiy axborotlar bo'limi boshlig'i, h.f.f.d. (PhD), k.i.x., podpolkovnik Raxmatbayev Ravshan Jumabayevich.

Mas'ul kotib – Tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasini dotsenti, f-m.f.f.d. (PhD), QK xizmatchisi Raxmanov Sayfiddin Jo'rabyevich.

Texnik dizayner - Axborotlashtirish va multimedia markazi boshlig'i, katta texnik II - darajali serjant Abduraxmonov Voxidjon Musalimxonovich

Mazkur jurnal bilim yurtining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining

2021-yil 4-iyun kunidagi № 300/5 qaroriga asosan harbiy, pedagogika, siyosiy va tarix fanlari bo'yicha dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan ilmiy-axborot jurnalidir.

Jurnalga O'zbekiston Respublikasi kuch tuzilmalari tasarrufidagi hamda boshqa vazirlilik va idoralarning oliv ta'limga muassasalarini professor-o'qituvchilar, doktorant, mustaqil izlanuvchilar, magistrler, tinglovchilar, kursantlar va qo'shinlar ofislerini tomonidan tayyorlangan ilmiy maqolalari kiritilgan.

Jurnalda qo'shinlarda Qurolli Kuchlarning qurilishi va isloh qilinishi, pedagogika va fandagi innovatsion yondashuvlarning turli jihatlari yoritiladi.

Jurnalda qo'shinlardan to'liq yoki qisman foydalananilda "Zirhli qalqon" ilmiy-axborot jurnalidan olinganligi ko'rsatilishi shart.

Muallif fikri tahriri yuqtai nazaridan farq qilishi mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar shaxsan mas'uldir.

Jurnalda chop etilgan maqolalar bo'yicha taklif va mulohazalarni quyidagi manzilga yuborishingiz mumkin:

Indeks: 111715, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri Amir Temur ko'chasi - 15, Chirchiq OTQMBY.

Tel.: (+99870) 716-50-50. Faks: (+99870) 716-50-07. E-XAT: kanselyariya.chvtkiu@exat.uz.

© O'R Mudofaa vazirligi, Chirchiq OTQMBY nashriyoti 2024-yil oktabr Jurnal 384 bet (192 varaq) dan iborat.



MUNDARIJA

TA'LIM VA TARBIYA

TUXTAMURADOV F.A. Ofitserning pedagogik qobiliyatini rivojlantirish funksiyalari va asosiy xususiyatlari	4
URAKOV S.E. Zamonaviy harbiy mojarolarda avtomatlashtirilgan boshqaruvi tizimini qo'llanilishining o'zga xos xususiyatlari	9
SHOYIMOV I.Q. Zamonaviy pedagogikani kasbiy mahorati rivojlantirishning pedagogik jihatlari to'g'risida ..	12
XUDOYQULOVA S.I., RAXIMOV X.X., ESHIMOV J.R. Matematikaning harbiy sohadagi tatbiqlari: Fan olimpiadalarining tarbiyaviy ahamiyati misolida	17
NORQULOV A. Bo'lajak ofitsirlarda kasbiy muloqot madaniyatini shakllantirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning pedagogik asoslari	23
ТИЛЛЯЕВ Ш.Ш., ШОЙИМОВ И.К. Подготовка офицерских кадров в вооруженных силах Российской Федерации	29
RAJABOV B.I. Oliy harbiy bilim yurti kursantlari irodasining rivojlanishi bosqichlari	34
ПАРАЖИЛЛАЕВ У. Г. Особенности эмоциональных состояний парашютиста на этапах прыжка	38
NURMATOVA Sh.Sh. Nutqiyl kompetentlikni rivojlanish – o'qish savodxonligi darslarining bosh maqsadi .	43
MAXMUDOV N.A., ULASHOV J.Z. Kursantlarda gibrild urushlarga qarshi immunitetni shakllantirishni oliy matematika fanini o'qitish orqali amalga oshirish yo'llari haqida	45
QURBANNAZAROV H.X., HAMROYEVA L.H. Harbiy-pedagogik jarayonning o'ziga xos xususiyatlari	50
TURGUNBAYEV N.T. Yetakchi xorijiy davlatlar maxsus operatsiyalar kuchlari bo'linmalariga nomzodlarni saralash tajribalari	54

NAZARIYA VA AMALIYOT

ИБРАГИМОВ С.М. Влияние условий горной и пустынной местности на формирование поражающих факторов оружия массового поражения	61
XUSANOV R.B., JO'RAYEV R.R. Rossiya federatsiyasi qurolli kuchlari razvedka bo'linmalarining ukraina respublikasida razvedka olib borish tajribasi va o'ziga xos xususiyatlari	67
NURMURADOV U.A., SOBIROV A.A. Muhandislik minalarining yaratilish tarixi, rivojlanishi va turlarga bo'linishi	71
SOMITOV A.A. Radiolokatsion stansiyalarni ishslash prinsipi va ularni qo'llash asoslari	77
SULTONOV K. K. Raketa-artilleriya qurol-aslahalarini ekspluatatsiya muddatini uzaytirish usullari	82
ULASHOV J.Z. Matematik tenglamalar orqali transport elektr jihozlarida yuzaga keladigan ba'zi muammolarni hal etish usullari	86
TUXTAMURADOV F.A. Zamonaviy urushlarda muhandislik to'siqlarini o'rnatishtida xorij tajribasi	89
NAZARMATOV A.S., XALILAYEV B.T. Komandirlar (bosqliqlar) da kasbiy kompetensiyani rivojlanishiga yo'llari va uning ahamiyati	94
ABDULLAYEV Sh.K. Misr Qurolli Kuchlarining turli sharoitlarda parashutsiz desantlashtirishga mo'ljallangan balandlik trenajyorining qulaylik va afzalliklari	101
ИОНУСОВ Б.А. Автомобил транспорти агрегатлари шестерняларининг ейилиш бардошлигини таъминлашда термик ишлов беришнинг аҳамияти	107
TOSHOV F.K. Portlovchi moddalar	114
TURSUNQULOV A.A. Zamonaviy lokal urushlarda bo'linmalar joylashgan pozitsiyalar va rayonlarni fortifikatsion jihozlash	119
ABDURAXIMOV U.A. Shahar sharoitida jang olib borishning o'ziga xos xususiyatlari (hozirgi zamon harbiy mojarolar tajribasidan).....	128
JUMAYEV A.S., G'APPAROV SH.X., NIYOZOV S.O'. Harbiy texnikalarda qayishqoq elementli podshipnik tayanchlari konstruktiv parametri va tebranishlar amplitudasini hisoblashning nazariy asoslari	136
ТИЛЛЯЕВ Ш.Ш., МУЙСИНАЛИЕВ У.А. О взглядах военных экспертов на ретроспективу хранения боеприпасов на складах тактического и оперативного звена (на примере опыта Российской Федерации) .	140
АБДУКАХХОРРОВ З., ЗОИРОВ М.А., ЖУНАЕВ И.У. Влияние предварительной высокотемпературной термической обработки на механические свойства стали	145
DUSTOV A.G. Artilleriya batareyasi jangovar ishiga oid tushunchalar tahlili	151
SHERMATOV I.S. Havo hujumidan mudofaa qo'shinlarini zamonaviy janglarda qo'llash tajribasi	157
ISHPULATOV O.J. O't ochish pozitsiyasida artilleriya bo'linmalari tomonidan uchuvchisiz uchuvchi apparatlar yordamida otishlarni olib borish tartibining o'ziga xosligi	162
MAJIDOV A.T. Zamonaviy jangovar harakatlarda qo'llaniladigan yangi taktik harakatlar	171
IBRAGIMOV S.I., JUMANIYOZOV F.A. 2001–2014 yillarda Afg'onistonda artillerianing jangovar qo'llanishi	176
АНТОН М.К. ЖУМАЕВ А.С., ГАППАРОВ Ш.Х. Термопластичные композиты инженерно-технического назначения на основе растительных отходов АПК	182



NUTQIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH – O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARINING BOSH MAQSADI

NURMATOVA Sh.Sh.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasи o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompitentligini rivojlantirish, ularni baholash, o‘quvchilarning bo‘s sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish - o‘qish savodxonligi darslarining asosiy maqsadi qilib belgilangan va keng ma’noda yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: nutqiy faoliyat, frazeologik ibora, tasviriy ifoda, “O‘qish savodxonligi” kitobi, yozma nutq, axborot, voqenavavislik, maqol, matal.

Boshlang‘ich sinf “O‘qish savodxonligi” kitobida berilgan hikoyalalar ustida ishslash o‘quvchilarda til sezgirligini tarbiyalaydi, ona tilining boy ifoda vositalariga oshno qiladi. Hikoyalarni o‘rganish orqali yosh kitobxonni ona tilining sehrli olami bilan tanishtirish imokniyatiga ega bo‘lish mumkin. Ulardan o‘quvchilarga ma’naviy tarbiya berish vositasi sifatida foydalanish lozim. O‘quvchilarda ma’naviyatni shakllantirib borish, nafaqat u haqda tushuncha hosil qilish, balki ular xulq-odobining shakllanib borishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Bu haqda Prezidentimiz shunday yozadi: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘s sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” [1].

Ta’limdan asosiy maqsad bolalarga bilim berishgina emas, balki bilim olish yo‘llarini o‘rganish, ularni ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish demakdir. Yangicha ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ona tilini o‘qitish mazmunini takomillashtirish, darslarni jahon andozalariga mos ravishda tashkil qilish o‘quvchilar faolligini oshiradigan muhim omillardan hisoblanadi [2].

Nutqiy faoliyatda har bir til hodisasining o‘z o‘rni, o‘z vazifasi bor. O‘quvchilar til imkoniyatidan vaziyatga qarab foydalanish malakasiga ega bo‘lishlari o‘z fikrini ifodalashga, zarur bo‘lgan so‘z va gap shakllari, ibora va tasviriy ifodalarni tanlay va qo‘llay bilishlari davr talabidir. Ona tilidan dars beruvchi o‘qituvchi haqiqiy ijodkor bo‘lishi, ta’lim jarayonida o‘quvchining mavzuni tinglash, anglash, erkin va mustaqil fikrash, qiyoslash, farqlash, alohidaliklarga ajratish va tasnif qilishga yo‘naltirilgan faoliyatni rag‘batlantirishi, o‘z fikri, g‘oyalarini o‘zgalarga yetkaza bilish, ko‘nikma va malakalarining shakllanishini nazorat qilishi, boshqarishi darkor. Bu narsa boshlang‘ich sinflardanoq shakllantirilishi lozim [3].

Nutq faoliyati insonning kundalik turmushi va turli sohalardagi faoliyati davomida vujudga keladigan, boshqa odamlar bilan muloqotga kirishish ehtiyojini qondirishni ta’minlovchi muhim jarayondir. Nutq faoliyatlarining bajarilishi ikkiga: og‘zaki nutqqa, yozma nutqqa bo‘linadi. Ma’lumot olish tinglab tushunish, o‘qish orqali amalga oshsa, ma’lumot berish, gapirish va yozma nutq orqali amalga oshadi [4].

Inson butun umri davomida o‘z nutqini takomillashtirib boradi. U tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli foydalanishi orqali nutqning go‘zal, ravon, ifodali, ta’sirchan bo‘lishiga intiladi. Bu jarayon, ayniqsa, bolalik davrida samarali tus oladi. Kichik bolalik davridan boshlab u aloqa – aralashuvga ehtiyoj sezadi, o‘zgalarning fikrini bayon qlishga tobora ko‘proq zarurat sezsa boshlaydi.

Maktabda fan asoslarini o‘rganish jarayonida o‘quvchi nutqini rivojlantirish inson



umrining boshqa davrlariga nisbatan ancha samarali kechadi. Chunki har bir fan bola nutqini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi va u ona tilining boy imkoniyatlaridan nutqda foydalanishga yo‘l ochadi.

O‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri nutqning nutq sharoitiga mosligidir. Nutq sharoiti deganda nutq yaratilayotgan paytda so‘zlovchi va tinglovchining sharoiti tushuniladi [5].

Shuni unutmaslik lozimki, nutq sharoitga mos tushsa, u mazmunli bo‘ladi. O‘quvchi faqat bilgan narsalarini, o‘zi xabardor bo‘lgan voqeа-hodisalarни og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri bayon qilish mumkin.

O‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan talablardan yana biri fikrining mantiqan to‘g‘ri, aniq va izchil bo‘lishidir. Nutqda har bir fikr mantiqan asoslangan bo‘lsagina, uning ta‘sirchanligi ortadi. Bu har bir o‘quvchidan narsa, voqeа-hodisaga sinchkovlik bilan qarash ularning har biriga to‘g‘ri baho bera bilish, shu yo‘l bilan muntazam va izchil qurish, isbothay bilish bilimni talab etadi [6].

O‘quvchi nutqiga qo‘yiladigan yana bir muhim talab uning boy va rang-barang bo‘lishidir. Nutqning boy va rang-barangligi avvalo fikrni bayon qilishda o‘zbek tilining leksik imkoniyatlari: ma’nodosh, uyadosh va qarama-qarshi ma’noli so‘zlardan, tasviriy ifoda va iboralardan, shuningdek nutqning badiiy qiymatini oshiruvchi vositalar: maqol va matallardan, ulkan shoир va yozuvchilarning maqol va afarizmga aylanib qolgan iboralari hamda jumlalaridan, badiiy asarlardan olingan parchalar va yorqin adabiy timsollardan, o‘zbek xalqning qochiriq so‘zlari va frazealogik iboralardan, o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish istiora, mubolag‘a kabi badiiy til vositalardan, ritorik so‘roqli gaplardan foydalanishda namoyon bo‘ladi. Tilning bu tasviriy vositalari nutqqa go‘zallik va joziba, rang-baranglik baxsh etadi.

Demak, o‘quvchi fikrini ham sodda, ravon bayon qilish, ham o‘zgalar fikrining mohiyatini anglab, uni tushunishi imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Birinchi sinflarning nutqini o‘stirishda ularga She‘r, maqol, topishmoq, hikoya, ertaklarni o‘rgatish yaxshi samara beradi. O‘quvchi she‘r yodlab, shu she‘rni aytish davomida ham o‘z nutqini oshira boradi. Maqol aytib, topishmoqlar aytib nutqlarini oshiradilar. Maqollarning tarbiyaviy ahamiyati juda kattadir. Hikoya va ertaklarni o‘qib berish bilan birga o‘quvchilarga ularni tushunganicha so‘zlatish kerak. Bu usul ularni nutqini oshirishda yaxshi samara beradi. Rasm asosida hikoyalar tuzdirish ham yaxshi natija beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016.
2. A.G‘ulomov, B.Qobilov. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1995.
3. R.Mavlonova, “Pedagogika” - O‘qituvchi – 2001
4. Jaloliddinova Nargiza Xusniddin qizi, “Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligi darslarida 4k modelini innovatsion va interfaol usullar orqali olib kirish”, 2023 134-138 bet
5. Nurmatova, S., & Ilhomova, D. (2024). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING DARSGA IJOBIY MUNOSABATLARINI SHAKLLANTIRISHDA BOLALAR ADABIYOTINING ROLI. Interpretation and researches.
6. Shavkatbekovna, N. S. (2023). FORMATION STRATEGIES OF POSITIVE ATTITUDES TOWARDS THE LESSON IN FOREIGN COUNTRIES. International Journal of Pedagogics, 3(12), 126-131.